

*Andijon davlat pedagogika instituti Ijtimoiy-gumanitar fanlar va san'at fakulteti Tasviriy san'at va musiqa ta'limi kafedrası 301 guruh talabasi*

***Ortiqova Zuhra Bahromjon qizi***

***Annotatsiya:*** *Maqola- Dirijyorlik asosli ravishda eng og'ir musiqiy mutaxassislik sanalishi, u butun bir bilimlar, qobiliyat shaxsiy sifatlar va kasbiy faoliyat tuzilishidagi keng boshqaruv turlari bilan ajralib turuvchi bilimlar kompleksini talab qilishi, dirijyor ijrochilarga temp, ritmik chizgilar, dinamik ko'rsatkichlarni, melodik konturlarni ko'rsatishi mumkinligi haqidagi yoritilgan.*

***Kalit so'zi:*** *Korifey, xeyronomiya, dirijyor, mimika, oyoqlar harakati, tana harakati, dirijyorlik tayoqchasi.*

Dirijyor (diriger — boshqarish, yo'lga solish) Orkestr yoki xorni, opera yoki balet sahnalarida esa orkestrni, xorni va barcha ijrochilarni boshqarib boruvchi, musiqiy asar ijrosining uyg'unligini ta'minlovchi shaxs.

Musiqiy jamoani birlashtirish va ijodiy ansambllikni ta'minlash kabi vazifalarni o'ziga oluvchi dirijyorlik asosli ravishda eng og'ir musiqiy mutaxassislik hisoblanadi. Chunki dirijyorlik butun bir bilimlar, qobiliyat, shaxsiy sifatlar va kasbiy faoliyat tuzilishidagi keng boshqaruv turlari bilan ajralib turuvchi bilimlar kompleksini talab qiladi.

Dirijyorlik taraqqiyotining keyingi bosqichi Xindiston, qadimiy Gretsiya (Yunoniston), Rim, Misr bilan bog'liq. Qadimgi Gretsiya sahnasida asosiy ishtirokchi jamoalardan biri xor edi. Xor boshqaruvchisi korifey deb atalib, u dirijyor vazifasini bajarardi. Korifey xor jamoasidagi eng mohir qo'shiqchi bo'lgan. U qo'shiqlarni yoddan bilgan va tovush balandligi, cho'zimi kuchini turli hissalarini harakatlari bilan ko'rsatgan.

Korifey sahnadan turib, ijro vaqtida o'Ichovning kuchli hissalarini qarsak chalish yoki oyog'i bilan polni tepib takt hissalarini belgilab turgan. Bu davrda,

musiqa asosiy o'ringa chiqadi. Raqs, harakat hukmronligi esa - qo'shiq, kuy bilan o'rin almashadi.

Qo'l harakat imo-ishorasi asta-sekin urma shovqinli boshqaruv o'rinni egallaydi. Bunday boshqaruv - "xeyronomiya" (grek. "Xerg" - qo'l, "uoston"-qonun) deb nom oldi va dirijyorlik ijro san'atiga asos soldi.

Xor ijrochiligida ikki xil ko'rinishdagi dirijyorlik amal qilar edi: yetakchisiz xor ijrosi uchun va asosan cherkovlarda ijro etiladigan asarlar xormeyster (regent) boshchiligida ijro etilar, cholg'u hamrohligidagi xor uchun asarlar ijrochisida esa rahbarlik qilish orkestr dirijyoriga topshirilar edi.

Dirijyorlik-ijodkorlik faoliyati uzoq tarixiy evolyutsiya jarayonida shakllanib keladi. Dirijyorlik faqatgina XIX asr 2 yarmiga kelibgina musiqiy ijodkorlikning mustaqil shakli sifatida shakllanganligiga qaramay, uning tarixi uzoq davrlarga borib taqaladi. Dirijyorlikning mohiyati-musiqani biror bir harakat bilan ifoda etmoq - insoniyat tabiatining psixofiziologik xususiyatlarida negizlanadi. Musiqiy tovushlar inson mushaklarining ixtiyorsiz harakatini chaqiradi (mimika, harakat, oyoqlar harakati, tana harakati). Qadimgi musiqiy madaniyat shu kabilarga asoslanar edi.

O'rta asrlarda dirijyorlik san'ati boshqa professional ijodiy madaniyat sohalari kabi cherkov homiyliги ostida rivojlandi. Musiqa har doim ibodatning muhim ajralmas qismi bo'lib qismat qilgan.

Dirijyorlikning keyingi rivojlanish davri ancha og'ir kechadi. Unga qarshilar juda ko'p edi, chunki dirijyorlik qilish paytidagi hassa bilan pultga urish natijasida kelib chiqadigan "shovqin" musiqani tinglanishiga halaqit berar edi. Muammoni hal qilish jarayonida musiqachilar hassaning o'rniga ishlatilishi mumkin bo'lgan "tinchoq" ko'pgina narsalarni ishlatib ko'rishadi. Bu kabi yechimlardan biri "xarta" deb nomlangan bo'lib, bir nechta nota qog'ozlarni o'rab olingan shakli edi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Wikipedia <https://uz.wikipedia.org> > wiki > D...Dirijyorlik
2. Кибер Ленинка <https://cyberleninka.ru> > article > d...DIRIJYORLIK SAN'ATI TARIXI VA UNING RIVOJLANISHI